



**FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI  
RIVOJLANTIRUVCHI O‘QUV TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASHDA  
INTEGRATSIYA MASALASI**

Qoraqalpog‘iston respublikasi  
Mahorat markazi

**Uteuliyeva Mexriban Ibragimovna**

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotcent

***Annotatsiya:** Fanlararo aloqadorlik asosida nutq kompetensiyasini rivojlantiruvchi ta‘lim vazifalarini tashkil etishda integratsiya masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Nutqiy kompetensiyani shakllantirishda turli fanlar mazmunini uyg‘unlashtirish, qo‘llab-quvvatlovchi ta‘lim muhitini yaratish, samarali o‘qitish usullari, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia resurslaridan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Shu bilan birga, integratsiya jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan to‘siqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Ilg‘or xorijiy tajribalar va sohadagi zamonaviy tadqiqotlar tahlili asosida ta‘limning barcha bosqichlarida nutqni rivojlantirish strategiyalarini fanlararo yondashuv asosida samarali joriy etish imkoniyatlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** nutqiy kompetensiya, fanlararo aloqadorlik, integratsiya, ta‘lim mazmuni, innovatsion o‘qitish, multimedia resurslari.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq, ta‘lim-tarbiyaviy jarayonlarni uyg‘unlashtirishgan holda yondashish o‘rganilayotgan manbaga ijodiy munosabatni o‘rnatish va shakllantirish muammolarini xal etishga



imkoniyat yaratadi. Shu sababli uyg'unlashtirilgan yondashuv ta'lim-tarbiyada amalga oshiriluvchi isloxotlar unga mantiqqa mos tarzda jamiyatga xizmat ko'rsatishi lozim. Bu o'rinda no'anaviy o'qitish shakli - integrasiyaning ahamiyati yanada oshib boradi. Negaki, integrasiyaning darajasiga qarab, uning qo'llanilish texnikasiga ko'ra, amalga oshirilgan texnologiyaning istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi. Chunki, integrasiya yetarlicha namoyon bo'lgan, turli harakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatli holatga o'tishda asosiy omil bo'lib yuzaga chiqq oluvchi faktor hisoblanadi. Integrasiya chuqur, noan'anaviy ta'lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa harakterdagi katta xajmli o'quv materialining uyg'unlashuvini o'zida namoyon etadi.

Mazkur tadqiqot ishida ham ta'lim mazmunining innovasiyalashtirishga oid integrativ yondashuv qilish masalasi yechimi qaraladi. Ona tili ta'limga integrasiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Hozirgi kunda integrasiyalangan ta'limni yaratish orqali yangilangan ta'lim mazmunini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogikada tabora dolzarb kasb etmoqda O'qitishga integrasiyalashgan yondashuvni metodologik asoslari asosiy fanlarni o'zlashtirishdagi, tabiat va jamiyatning biriligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan. Oxirgi paytda ta'limni integrasiyalash to'g'risida juda ko'p fikrlar bildirilmoqda. Olimlar va amaliyotchi-o'qituvchilar bolalar qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirmoqdalar. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etishga harakatlar bo'lmoqda [1-2] Chet el tajribasi bilan tanishish ham shuni



ko'rsatadiki, fan va jamiyat (amaliyot)haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integrasiyalangan fanlar ko'pgina mamlakatlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu integrasiyalangan fanlar jahon hamjamiyatida o'quvchilarda o'z oldiga qo'yilgan har tomonlama insonparvarlik hissini shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi to'g'risida xabar beradi.[1-2]

Integrativ ta'limning maqsadi bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson jamiyat, fan, atrof-muhit hamda san'at bilan suxbatlashishga faqat odamlar suhbatlashadigan til bilan emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir. Integrativ ta'limning maqsadlaridan yana bir o'zi yashayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi haqida keng va asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va ijtimoiy dunyosi haqida, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Bunda asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallshgagina emas, balki ilmiy, ijodiy fikrlashni rivojlantirishdir. Integrativ ta'lim shaxsga moslangan yondalishga ega, faqatgina sinf yoki sinfga emas, har bir ta'lim oluvchiga beriladigan qilib tashkil etish nazarda tutiladi.

Bunda uning shaxsiy ijodiy fikrlashi, fazilatlari va qobiliyatlari alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Integrasiyani amalga oshirishning usullari samarali yoki samarasiz bo'lishi mumkin, bunday hollarda ba'zan integratsion yondashuvni amalga oshirish usullarning birlaridan yuz o'girib, ikkinchisidan barcha darajalarda ulardan foydalanish xususiyatlarini hisobga oladigan integrasion choralar tuzish talab qiladi. Muammoning bunday qo'yilishi integrasiyaning turli ta'lim pog'analarida turli xususiyatlarga ega ekanligi



dalillanadi. Boshlang'ich ta'limda integrasiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, ta'lim va tarbiya jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq. Chunki, tarbiya ta'lim jarayonining barcha majmuini o'z ichiga oladi. Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'limning barcha jihatlari (aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigenik, xuquqiy, jismoniy tarbiyan) ni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini qamrab oladi. O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, ya'ni innovasion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Bu esa fanlarga oid bilimlarni sifat jihatdan yangi ijodiy o'zgarishlarga olib keladi. Ma'lumki, ta'lim jarayonida o'quv fanlariga oid bilimlar integratsiyalanganda xalqning ijtimoiy tajribasi, til boyligi, ma'naviy - madaniy qadryatlari, intellektual salohiyatlari, axloqiy meyorlari xaqidagi bilim va tushunchalar hamda innovatsion metod va texnologiyalar shaklida o'rgatilishi lozim. Amaldagi ta'lim jarayonini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, u yoki bu o'quv fani mazmunida o'quvchining ijtimoiy tajribasiga kirmay qolgan bilim va tushunchalar mavjud. Buning asosiy sababi o'quv fanining mazmunini o'ta murakkab yoki haddan tashqari soda ekanligidadir. Agar o'quv materialini o'ta murakkab bo'lsa, o'quvchi uni to'liq o'zlashtirishiga qiynaladi. Bu o'quvchida zerikarli holatning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Agar sodda va takror holda ifodalangan bo'lsa bunday o'quv materialini o'zlashtirishiga bo'lga ishtiyoq yo'qoladi.

Bugungi kunga kelib jahondagi ko'plab mamlakatlari ta'lim tizimida integrativ harakterdagi o'quv dasturlari va darsliklaridan foydalanib kelmoda. Har



bir mamlakat ayni shu davlatning ta'lim tizimiga qo'yilgan buyurtmaning tabiatidan kelib chiqqan holda integratsiyaning turli darajalarini ishlab chiqqan va joriy qilib kelmoqda. Chunonchi, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo'lsa, Korea va Shveysariyada integratsiyalshgan fanlar yoki alohida o'quv predmetlari, Avstraliyada integratsiyalashgan fanlar, Vengiriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv predmetlari, inson va tabiat, integrativ fanlar, Niderlandiyada alohida o'quv predmatlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi[1-1] Bizda bu sohada dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartlarida Ona tili, O'qish, Matematika, Tabiat, hamda Inson va jamiyat ta'lim sohalari belgilab berilgan. Inson va jamiyat ta'lim sohasi o'zida bir qator o'quv predmetlariga oid tushunchalar mujassamlashtirilgan. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ham "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovasiya, integrasiya", "Texnologiya", "Boshlang'ich ta'limda dizaynerlik ishlari" kabi integrativ fanlar o'quv rejasiga kiritilmoqda. Ularni tashkil qilish orqali o'quv-bilish jarayonini samaradorlikka erishish nazarda tutilgan, bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, mavzularni integrasiya asosida o'quv materiallarini bayon qilishda oldingi o'quv materialini keyingisini toldiradi. Lekin hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Bunday integrativ yondashuv natijasida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda ijodiy faoliyatlari muntazam ravishda rivojlanib, boyib boradi. O'quv dasturlarida o'zaro uyg'unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integrasiya bunda dasturlarda mavzularao uyg'unlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.



Xulosa qilib aytish mumkinki, nutq kompetensiyasini rivojlantiruvchi ta'lim vazifalari ustida ishlashda integratsiya masalasi o'quvchilarning ta'lim natijalarini oshirish uchun zarurdir. Turli fan sohalari va yondashuvlarini integratsiyalash tilni kengroq tushunishni ta'minlaydi, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini yaxshilaydi va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, bu puxta rejalashtirishni, o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni va o'quv rejasini chuqur tushunishni talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga turli xil ta'lim ehtiyojlarini qondiradigan integratsiyalashgan dars rejalarini ishlab chiqish uchun etarli vaqt va kuch sarflashlari kerak.